



O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI MAKTABGACHA VA MAKTAB TA’LIMI VAZIRINING BUYRUG‘I

Ayrim fanlar chuqur o‘qitiladigan sinflari mavjud umumiy o‘rta ta’lim maktablari uchun 2025-2026-o‘quv yiliga mo‘ljallangan namunaviy o‘quv rejalarni tasdiqlash to‘g‘risida

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “O‘zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta’limi vazirligi huzuridagi ixtisoslashtirilgan ta’lim muassasalari agentligi tizimidagi ixtisoslashtirilgan maktablar tarmog‘ini kengaytirish to‘g‘risida” 2022-yil 14-apreldagi PF-106-sonli Farmoni hamda Vazirlar Mahkamasining “Ayrim fanlar chuqur o‘rganiladigan davlat ixtisoslashtirilgan umumta’lim muassasalari faoliyatini takomillashtirish to‘g‘risida” 2008-yil 7-avgustdagi 173-son qarorida belgilangan vazifalar ijrosini ta’minlash maqsadida **buyuraman:**

1. Quyidagilar:

Ta’lim o‘zbek tilida bo‘lgan ayrim fanlar chuqur o‘qitiladigan sinflari mavjud umumiy o‘rta ta’lim maktablarining ixtisoslik fanlari ro‘yxati va 2025-2026-o‘quv yiliga mo‘ljallangan namunaviy o‘quv rejasi 1-ilovaga muvofiq;

Ta’lim rus tilida bo‘lgan ayrim fanlar chuqur o‘qitiladigan sinflari mavjud umumiy o‘rta ta’lim maktablarining ixtisoslik fanlari ro‘yxati va 2025-2026-o‘quv yiliga mo‘ljallangan namunaviy o‘quv rejasi 2-ilovaga muvofiq;

Ta’lim qardosh (qozoq, qirg‘iz, tojik, turkman) tilida bo‘lgan ayrim fanlar chuqur o‘qitiladigan sinflari mavjud umumiy o‘rta ta’lim maktablarining ixtisoslik fanlari ro‘yxati va 2025-2026-o‘quv yiliga mo‘ljallangan birinchi namunaviy o‘quv rejasi 3-ilovaga muvofiq;

Ta’lim qardosh (qozoq, qirg‘iz, tojik, turkman) tilida bo‘lgan ayrim fanlar chuqur o‘qitiladigan sinflari mavjud umumiy o‘rta ta’lim maktablarining ixtisoslik fanlari ro‘yxati va 2025-2026-o‘quv yiliga mo‘ljallangan ikkinchi namunaviy o‘quv rejasi 4-ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

2. Qoraqalpog‘iston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta’limi vazirligi (G.Kojabayeva) bir hafta muddatda Qoraqalpog‘iston Respublikasi hududidagi ayrim fanlar chuqur o‘qitiladigan sinflari mavjud umumiy o‘rta ta’lim maktablari uchun 2025-2026-o‘quv yiliga mo‘ljallangan namunaviy o‘quv rejalarni mazkur buyruq bilan tasdiqlangan o‘quv rejalarga muvofiq ishlab chiqsin hamda O‘zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta’limi vazirligi bilan kelishilgan holda tasdiqlasin.

3. Qoraqalpog‘iston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta’limi vaziri, Toshkent shahar va viloyatlar maktabgacha va maktab ta’limi boshqarmalari boshliqlariga:

bir hafta muddatda mazkur buyruq bilan tasdiqlangan namunaviy o‘quv rejalarni hududdagi barcha ayrim fanlar chuqur o‘qitiladigan sinflari mavjud umumiy o‘rta ta’lim maktablariga yetkazish;

2025-2026-o‘quv yilida o‘quv jarayonini ushbu o‘quv reja asosida tashkil etish;

o‘qituvchilar o‘rtasida dars soatlarini belgilangan tartibga muvofiq taqsimlash vazifalari yuklatilsin.

4. Belgilab qo‘yilsinki, umumiy o‘rta ta’lim maktablarining oddiy sinflarida o‘quv jarayoni O‘zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta’limi vazirining “Umumiy o‘rta ta’lim muassasalari uchun 2025-2026-o‘quv yiliga mo‘ljallangan tayanch o‘quv rejalarni tasdiqlash to‘g‘risida” 2025-yil 10-apreldagi 121-sonli buyrug‘i bilan tasdiqlangan tayanch o‘quv reja asosida tashkil qilinadi.

5. O‘quv jarayonini metodik ta’minlash va darsliklar boshqarmasi (D.Norboyeva) 2025-2026-o‘quv yilida ayrim fanlar chuqur o‘qitiladigan sinflari mavjud umumiy o‘rta ta’lim maktablari uchun ushbu o‘quv rejalari asosida ta’lim berish jarayonini muvofiqlashtirib borsin.

6. O‘zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta’limi vazirining “Ayrim fanlar chuqur o‘qitiladigan sinflari mavjud umumiy o‘rta ta’lim maktablari uchun 2024-2025-o‘quv yiliga mo‘ljallangan namunaviy o‘quv rejalarni tasdiqlash to‘g‘risida” 2024-yil 20-iyundagi 191-sonli buyrug‘i 2025-yil 31-avgustdan boshlab o‘z kuchini yo‘qotgan deb hisoblansin.

7. Devonxona (X.Raximbayeva) ushbu buyruqni bir kun muddatda Qoraqalpog‘iston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta’limi vazirligi, Toshkent shahar va viloyatlar maktabgacha va maktab ta’limi boshqarmalari hamda vazirlik tasarrufidagi tashkilotlarga yetkazsin.

8. Mazkur buyruqning ijrosini nazorat qilish vazirning birinchi o‘rinbosari Sh.Karimov zimmasiga yuklansin.

Vazir

Toshkent sh.,
2025-yil “ 26 ”-iyun,
209-son



X.Umarova